
1-SEKTORDA IFTORLIK DASTURXONI YOZILDI

Muborak Ramazon oyi munosabati bilan tuman hokimi tashabbusi bilan 1-sektor hududida iftorlik dasturxonini yozildi. Unda mahallalardagi kam ta'minlangan, ijtimoiy ko'makka muhtoj, ehtiyojmand fuqarolar, nuroniylar taklif qilindi.

Iftorlik dasturxonida ro'zadorlarimiz duolari olindi, Qur'on tilovat qilindi. Iftorlik avvalida so'z olgan tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev ulug' oyda yon-atrofdagilarga mehr-saxovat ko'rsatish, yaqinlar holidan xabar olish katta savob ekanini ta'kidlab, hokimliklar va tashkilotlar tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, nuroniylar va boquvchisini yo'qotgan yoshlar holidan xabar olish ishlari boshlab yuborilganini ta'kidlab o'tdi. Iftorlikda ishtirok etgan ro'zador nuroniylarimiz yurtimizga tinchlik-osoyishtalik, dehqonlarimiz hosiliga baraka, Prezidentimiz rahbarligida yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlariga rivoj tilab, duoga qo'l ochishdi.

2023-03-30 08:41:40